DFF - Nika Pharm

Mamlakat:	O‘ZBEKISTON
Loyiha raqami:	52709
Faoliyat sohasi:	Ishlab chiqarish va xizmatlar
Bildirishnoma turi:	XUSUSIY
Ekologik toifasi:	B
Tasdiqlanish muddati sanasi:	2021-yil, 7-dekabr
Qaysi bosqichdaligi:	Tasdiqlangan
Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan sana:	2021-yil, 3-dekabr

Loyiha mazmuni

O‘zbekistonda jadal rivojlanishni maqsad qilgan mahalliy farmatsevtika kompaniyasi hisoblangan “Nika Pharm” mas’uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya, deb yuritiladi) uchun 5 million AQSH dollari miqdorida kredit berish. Bu kredit ikki transhdan iborat bo‘lib, kredit mablag‘larining 3 million AQSH dollari assignatsiyalashgan (ajratilgan) transh shaklida va qolgan 2 million AQSH dollari assignatsiyalashmagan transh shaklida o‘tkazib beriladi. Loyiha doirasida Kompaniyaning farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha mahsuldorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va tajriba markazini modernizatsiya qilish va O‘zbekistonning turli viloyatlarida yangi omborlar qurish uchun texnologik uskunalar xaridini moliyalashtiriladi.

Loyiha maqsadi

Mazkur Loyiha ushbu mahalliy korxonaning ishlab chiqarish quvvatini oshirishga ko‘maklashish orqali Kompaniyaning raqobatbardoshligini oshiradi va bu bilan hozirgi vaqtda import hajmi yuqoriroq bo‘lgan mazkur sektorda ichki farmatsevtika savdosining nomutanosibligini bilvosita bartaraf etish imkonini beradi. Loyiha, shuningdek, mamlakatning turli viloyatlarida uchta yangi ombor qurish orqali Kompaniya geografik ko‘lamini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Kompaniya va u tegishli bo’lgan yirik “Asklepiy” kompaniyalar guruhi tomonidan qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan korporativ boshqaruv bo‘yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish YTTB bilan kelishuvning yana bir ajralmas qismi hisoblanadi. Bu biznesni boshqarishning joriy amaliyotlarini sezilarli darajada yaxshilashi barobarida Kompaniya va yuqorida ta’kidlangan kompaniyalar guruhiga ilg‘or tajribalar, institutsional siyosat va nazoratga asoslangan taraqqiyot rejalarini amalga oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ushbu Loyiha YTTBning O‘zbekistonga mo‘ljallangan mamlakat strategiyasining “xususiy sektor kompaniyalarini rivojlantirish va qiymat qo‘shish salohiyatini kuchaytirish” hamda “ishbilarmonlik muhitini yaxshilash” kabi strategik maqsadlariga erishishiga hissa qo‘shadi.

O‘tish davri ta’siri

ETI 67

Mazkur Loyiha quyidagilarni qo‘llab-quvvatlaydi:

- Asosiy sifat – “raqobatbardosh”: ish faoliyatini takomillashtirish orqali Kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish, xususan, tabletka va kapsulalar ishlab chiqarish bo‘yicha salohiyatni oshirish, ilmiy tadqiqot va tajriba markazini modernizatsiya qilish va viloyatlarda yangi omborlar qurish.
- Ikkilamchi sifat – “Samarali boshqaruv”: korporativ boshqaruv bo‘yicha kompleks harakatlar rejasi (“CGAP”) orqali Kompaniyaning korporativ boshqaruv amaliyotini sezilarli darajada yaxshilash.

Mijoz haqida

“NIKA PHARM” MCHJ

2006-yilda tashkil etilgan “Nika Pharm” MChJ (“Nika Pharm” yoki “Kompaniya”) O’zbekistonda jadal rivojlanishni maqsad qilgan mahalliy farmatsevtika kompaniyasi hisoblanadi. Mazkur Jamiyat gastroenterologiya, shamollash va gripp, urologiya va pediatriya kabi to‘rtta asosiy terapevtik yo‘nalishni o‘z ichiga olgan holda, tabletkalar, kapsulalar, qopchali dori vositalari va burun uchun sprey va tomchilarni ishlab chiqaradi. Kompaniya hozirda mamlakatdagi ikkinchi yirik mahalliy farmatsevtika ishlab chiqaruvchisidir.

Nika Pharm “Asklepiy” kompaniyalar guruhi (keyingi o’rinlarda norasmiy ravishda– Guruh, deb yuritiladi) deb nomlanuvchi ancha yirik farmatsevtika Guruhi tarkibiga kiradi. Bu Guruh 1993-yilda farmatsevtika distribyutori sifatida tashkil etilib, yillar davomida u ishlab chiqarish, tarqatish va chakana savdo asosida yaratilgan qiymat zanjiri bo‘yicha mamlakatdagi o‘rta darajadagi farmatsevtika kompaniyalar guruhiga aylangan.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag‘lar

5.000.000,00 AQSH dollari

Kompaniyaga 5 million AQSH dollari miqdoridagi va ikki transhdagi birlamchi kredit (3 million AQSh dollari assignatsiyalashgan va 2 million AQSH dollari assignatsiyalashmagan transh asosida).

Loyihaning umumiy qiymati

8.000.000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati 8 million AQSH dollarini tashkil qiladi va bunda Kompaniyaning hissasi 3 million AQSH dollariga teng.

Ekologik-ijtimoiy xulosa

YTTBning Loyiha talablariga (PR) muvofiq bu Loyiha sohaga oid risklar va Kompaniyaning o‘z operatsiyalarini bajara olish salohiyatiga asosan, quyi o’rta riskli, ya’ni B toifasiga kiritildi (ESP 2019). Faol farmatsevtik vositalar (API) qo‘shilmagan farmatsevtika vositalarini ishlab chiqarish va ularni ulgurji sotish jiddiy ekologik muammolarga sabab bo‘lmaydi. Bu Loyiha GET (Yashil iqtisodiyotga o‘tish) talablariga javob beruvchi komponentlarga ega emas va u Parij kelishuviga (PA) mos keladi.

Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD) COVID-19 yondashuviga muvofiq Loyihaning oʻz ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda oʻtkazilib, u Loyihaning ekologik va ijtimoiy masalalar boʻyicha soʻrovnomasi, suhbatlar hamda yordamchi materiallar sharhini oʻz ichiga oldi. ESDD'da tasdiqlanishicha, jamiyat Ekologik, ijtimoiy va sogʻliq (ESH) sohasida yetarlicha shakllangan salohiyatga ega va u oʻzining ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot markazi va omborlarida EHS siyosatiga muvofiq ISO 9001, 14001, 45001 va 22000 standartlari boʻyicha sertifikatga ega boʻlgan boshqaruv tizimlarini joriy qilgan.

Ishlab chiqarish obyektlari dori vositalarini Yaxshi ishlab chiqarish amaliyotlari (GMP) qoidalarining milliy talablariga javob beradi. Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP) talablari ombor qurilishi boʻyicha pudratchilarni boshqarish, mahsulotlarni Yaxshi yetkazish amaliyotlari (GDP) talablarini joriy qilish, YTTBning 5-loyiha talabiga muvofiq yer sotib olishni yakunlash, dori vositalari aralashmalarini tayyorlash sexlarida oqova suvlarni tozalash inshootlarini qurish, ozon qatlamiga zarar yetkazmaydigan sovutish vositalaridan foydalanish, tegishli salomatlik, xavfsizlik va mehnat sharoitlarini ta'minlash qoidalari, yongʻin xavfsizligi choralari, yangi avtoparklar uchun EURO6 chiqindi gazlari emissiyasi boʻyicha talablar, farmakologik nazorat va mahsulot xavfsizligi tartib-qoidalari va shu kabilarni joriy etishni oʻz ichiga oladi. Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini (ESAP) imzolashdan oldin Mijoz tomonidan ma'qullanishi talab etiladi. Bank mazkur Loyiha va ESAP'ning amalga oshirilishini yillik ekologik va ijtimoiy hisobotlarni koʻrib chiqish va zarurat tugʻilgandan, obyektga tashrif buyurish orqali nazorat qiladi.

Texnik koʻmak

1. Texnologik audit: Kompaniyadagi texnik kamchiliklarni aniqlash va istiqbolda oʻsish uchun tegishli yechimlarni taqdim etish uchun 30.000 yevro miqdoridagi texnik ko'mak ajratiladi.
2. Huquqiy ekspertiza: Tashqi huquqiy ekspertiza uchun xarajatlarini qoplash uchun 19.000 yevro va shu kabi boshqa umumiy ekspertiza xarajatlarini qoplash uchun 43.500 yevro mablagʻ ajratiladi.
3. Moliyaviy hisobot va boshqaruv: Mahalliy buxgalteriya hisobining umumiy qabul qilingan hujjatlarini moliyaviy hisobdorlikning xalqaro standartlariga (IFRS) moslashtirish uchun 40.000 yevro texnik koʻmak beriladi.

Bu mablagʻlar YTTB aksiyadorlarining maxsus jamgʻarmasi tomonidan taqdim qilinadi.

Qoʻshimchalilik sharti

- Moliyaviy tuzilma: YTTB mahalliy korporatsiyalar uchun mahalliy tijorat manbalari taklif qiladigan muddatdan uzoqroq muddatga moliyalashtirishni taklif qilmoqda. Bu oʻz oʻrnida Kompaniya uchun uzoq muddatli kapital xarajatlarni moliyalashtirish rejasini bajarishda zarur;
- Standartlarni joriy qilish: Bank ishtiroki tufayli Kompaniya va Guruh korporativ boshqaruvi boʻyicha kompleks harakatlar rejasini qabul qilish va amalga oshirish orqali oʻzining korporativ boshqaruv tizimini takomillashtiradi. Bu esa, biznesning bozordagi ulushini yanada oshishi, ilgʻor amaliyotlarga koʻproq moslashuvi va faoliyati barqarorlashuvining mustahkamlanishiga olib keladi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Mirzoanvar Tolibov

anvar.tolibov@nikapharm.uz

+998781508668

www.nikapharm.uz

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Sayram tor ko‘chasi 48A-uy. Pochta indeksi: 100170

O‘tish davri nima

O‘tish davri ta’sirini baholash bo‘yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo‘shimcha ma’lumotni mana bu havoladan olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo‘lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog‘laning:
Tel: +44 20 7338 7168
E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun YTTB xaridlari sahifasiga o‘ting:
Tel: +44 20 7338 6794
E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma’lumotlar

Aniq so‘rovlar YTTB so’rovlar shaklidan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o‘zining “ekologik jihatdan mas’ul va barqaror rivojlantirish” tashabbusini ilgari surishda Ekologik va ijtimoiy siyosat va uning tarkibiy qismi bo‘lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo‘llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta’minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko‘rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o‘z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta’sirining mohiyati va ko‘lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug‘ilganda, YTTB o‘z mijozlaridan qo‘shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta’sirlari haqida ma’lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko‘rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar ESPning quyidagi sahifasida keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me’yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas’uliyatli boshqaruvga ko‘maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg‘or xalqaro tajribalarga muvofiq bo‘lishini ta’minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun

ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo‘l qo‘yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko‘ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste’mol qilish bo‘yicha ma’lumotni tekshiruvchi mas’ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo‘lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig‘iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma’lumotlar tegishli choralar ko‘rish uchun OCCO tomonidan ko’rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonim tarzdagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko‘rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma’lumotlar yaxshi niyatni ko‘zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko‘maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma’lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma’lumotlar olish mumkinligini bilish uchun Axborotdan foydalanish siyosati sahifasiga o‘ting.

Muayyan savollaringizni YTTBning ma’lumot so‘rovi orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog‘liq shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o‘zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo’lgan urinishlari samarasiz bo‘lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya’ni loyihalar bilan bog‘liq shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o‘zlarining o‘sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog‘liq shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko‘ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo‘yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o‘rtasidagi o’zaro aloqalarni o‘rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan Ekologik va ijtimoiy siyosat talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli Axborotdan erkin foydalanish siyosati qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug‘ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko‘riladigan choralarini ko‘zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma’lumot olish, ko‘rib chiqilishi kerak bo‘ladigan shikoyatlarni jo‘natish uchun Loyihalar bilan bog‘liq shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi veb saytiga kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo‘shimcha ma’lumot olish va shikoyat jo’natish uchun ipam@ebrd.com elektron pochta orqali biz bilan bog‘lanishingiz mumkin.